

**EKSTREMAL VA KRIZIS HOLATLAR SHAROITIDA FUQARO
MUHOFAZASINING XIZMAT VA KUCHLARI HAMDA ULARNING
OTRYADLARI**

Nabiyev Akramjon Botirjonovich

Namangan davlat universiteti Kasb ta'limi kafedrasи

PhD dotsenti

Sobirjonova Manzura Obidjon qizi

Namangan davlat universiteti Kasb ta'limi kafedrasи

Hayot faoliyati xavfsizligi yo'nalishi talabasi

+99893 594-16-55

+99899 044-06-47

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ekstremal va krizis holatlar sharoitida fuqaro muhofazasining xizmat va kuchlari, hamda ularning otryadlari amalga oshiradigan tadbirlarning o'ziga xos xususiyatlari hamda asosiy tushunchalari.

Kalit so'zlar: Fuqaro muhofazasi, otryad, obyekt, avariya-texnik xizmat

Kirish Fuqaro muhofazasining maxsus tadbiralarini o'tkazishini ta'minlash va ushbu maqsadda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, obyekt fuqaro muhofazasi xizmatlarini tashkillaydi.

Fuqaro muhofazasi xizmatlari ro'yxati hamda ular haqidagi Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari harbiy qo'shinlardan va fuqaro muhofazasi noharbiy qo'shilmalaridan iborat.

**Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish -
favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choraları,
usullari, vositalari tizimi, sa'y-harakatlari majmuidir.**

Kuch va vositalar tarkibi, tuzilishi, shuningdek, fuqaro muhofazasi otryadlarining faoliyati bo'yicha boshqa masalalar O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan belgilanadi.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini hal qilishda Qurolli Kuchlarning qutqaruv tuzilmalari, qism va bo'linmalari qonunda belgilangan tartibda jalb qilinishi mumkin.

Fuqaro muhofazasi qo'shilmalari territorial-ishlab chiqarish printsipi bo'yicha qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'tkazish uchun tashkillanadi.

**Fuqaro muhofazasi qo'shinmalari ushbularga bo'linadi:
bo'ysunishi bo'yicha** - territorial jihatdan (viloyat, tuman, shaharlarda) va ob'ektga (xalq ho'jaligi ob'ektlarida, o'quv yurtlarida);

xizmat vazifasi bo'yicha - umumiy (zarar ko'rgan o'choqlarda qutqaruvinishlarini olib borish uchun) va maxsus tadbirlarni bajarish uchun qo'shilmalar xizmati (razvedka olib borish, tibbiy yordam ko'rsatish, yong'in tarqalishini to'xtatish va uni o'chirish, jamoat tartibni saqlash va boshqalar).

Potentsial xavfli ishlab chiqarish ob'ektlari bor hamda muhim mudofaa va iqtisodiy ahamiyatga ega tashkilotlar fuqaro muhofazasi qo'shilmalari tashkil etadilar va ularni doimo shay turishini ta'minlaydilar.

Bunday tashkilotlarni aniqlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi.

Fuqaro muhofazasi otryadlariga O'zbekiston Respublikasining fuqarolari: 18 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 18 dan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar jalgan qilinishi mumkin. Harbiy xizmatga majburlar, I, II, III guruh nogironlari, xomilador ayollar, 8 yoshga to'limgan bolalari bo'lgan hamda 3 yoshgacha bolalari bo'lgan o'rta yoki oliy tibbiy ma'lumotli ayollar bundan mustasno.

Fuqaro muhofazasining yig'ma otryadlari, ularning vazifalari va jihozlanishi

1. Oohlantirish va aloqa guruhi (otryadi). Aloqa vositalari bazasida uning rahbari boshchiligidagi tuziladi. Uning vazifasi favqulotda vaziyat yuzaga kelganda oohlantirish - fuqaro muhofazasining signal va xabarlarini uzatish hisoblanadi.

2. Jamoat tartibini saqlash komandasasi (otryadi) mahkama muhofazasi bo'linmalari bazasida uning rahbari boshchiligidagi tuziladi. Uning zimmasiga ob'ektni mustahkam qo'riqlanishini ta'minlash, favqulotda vaziyatlar yuzaga kelganda hamda qutqaruva va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlar olib borilayotganda jamoat tartibini saqlash, yorug'likdan niqoblanish rejimini nazorat qilish kabi vazifalar yuklatiladi.

3. Panagox va saqlanish joylari (otryadi) kapital qurilish va uy-joy kommunal ho'jaligi bazasi bo'limlarida tashkillanadi. Ishchi va xizmatchilarni himoyalananish inshoatlarida joylashtirish rejasini ishlab chiqish, panagoxlarni tayyorligini ta'minlash va ulardan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish bilan shug'ullanadi hamda qidiruv ishlarida ishtiroy etadi.

4. Radiatsiyaga va kimyoviy qurollariga qarshi himoya otryadi (komandasasi, guruhi, zvenosi) kimyo va zavodning markaziy laboratoriyasi (taxlilxonasi) bazasida tashkil etiladi. U ishchi va xizmatchilarni, suv manbalari, oziq-ovqat zahiralari va omborlarini radiaktiv va zaharovchi moddalardan muhofazalash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradi. Radiatsiyaga va kimyoviy moddalarga qarshi ish olib boruvchi qo'shilmalar va muassasalarni uyushtiradi va tayyorlaydi, shaxsiy va kollektiv himoyalananish vositalari va maxsus texnikalar xolati ustidan nazorat qiladi, radiatsion va kimyoviy kuzatuv posti ishlarini tashkillaydi va shaxsiy tarkibning zaharlanish va

nurlanishi ustidan dozemetrik nazorat o'tkazadi, radiaktiv va kimyoviy moddalardan zaharlanishni bartaraf qilish tadbirlarini o'tkazadi.

5. Yong'inga qarshi kurashish komandasasi. Yong'indan saqlanish mahkamasi bo'limlari bazasida tashkillanadi. U yong'inga qarshi tadbirlarni ishlab chiqadi va ularni o'tkazishni nazorat qiladi, yong'inni tarqalishiga yo'l qo'ymaydi va uni o'chiradi.

6. Avariya-texnik xizmat komandasasi (otryadi) ishlab chiqarish va texnik bo'limlar bazasida tashkillanadi. Ushbu komanda (guruh)lar asosiy binolar, maxsus muhandislik tarmoq va kommunikatsiyalarining mustahkamligini oshiruvchi, ularda falokatlarni bartaraf va lokalizatsiya qilish bo'yicha kechiktirib bo'lmas tadbirlarni, vayronalarni tozalash va odamlarni qutqarish ishlarini o'tkazadi.

7. Otryad (sandrujina, sanpost) - tibbiy punkt, tibbiy sanitar qism va poliklinikalar bazasida tashkillanadi. Sanitar gigienik va profilaktik tadbirlarni o'tkazadi, shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatadi va ularni o'quv muassasalariga evakuatsiya qiladi, shahar tashqarisida yashash joylarida ishlaydigan oilalarga tibbiy yordam ko'rsatadi.

8. Transport xizmati komanda (otryadi)si - transport bo'limlari va ob'ekt garajlari bazasida tashkillanadi. Ishchi va xizmatchilar evakuatsiyasi va ularni ish joylariga tarqatish tadbirlari bilan bog'liq tashish ishlarini ta'minlash bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi; kuch va vositalarni zarar ko'rgan o'chog'larga yetkazish, shikastlanganlarni evakuatsiya qilish hamda fuqaro muxofazasining boshqa maqsadlari uchun tashkillanadi.

9. Moddiy-texnik ta'minlash guruhi (otryadi) - ob'ektning moddiy-texnik ta'minot bo'limi bazasida tashkillanadi. Ushbu qo'shilmaning vazifalari bo'lib: moddiy-texnik ta'minot rejalarini ishlab chiqish, boshqa qo'shilmalarini asbob-uskunalarning barcha turlari bilan o'z vaqtida ta'minlash, texnika va turli asbob-uskunalarning ta'miri, ularning ish joylariga yetkazib berish, saqlash va ro'yxatga olish, shahar tashqarisidagi ishchi va xizmatchilarni oziq-ovqat va birinchi zaruriyat buyumlar bilan ta'minlash hisoblanadi.

10. Energiya bilan ta'minlash va svetomaskirovka guruhi (otryadi)-bosh energetika bo'limi bazasida tashkillanadi. Guruh boshlig'i - bosh energetik hisoblanadi va u ob'ektlarga elektr energiya, yoqilg'i va gazning uzluksiz uzatilishini ta'minlaydi, energiya tarmoqlarining zaif joylarini turli xildagi sistema va muhofazalanish vositalari va asbob-uskunalari bilan ta'minlashni va ularda kechiktirib bo'lmas ishlarni amalga oshiradi, svetomaskirovka va boshlang'ich tiklash ishlari bo'yicha tadbirlarni rejalashtiradi.

Xulosa Halq xo'jaligi obe'ktlari (zavod, fabrika, tashkilot va muassasalarda) va o'quv yurtlari (maktab, litsey, kollej, ixtisoslashgan maktablar)da fuqaro muhofazasi tadbirlarini o'tkazish uchun noharbiy qo'shilmalar tuziladi. Qo'shilma

komandirligiga muassasaning doimiy tarkibdagi shaxs (o'qituvchi, ishchi va xizmatchi)lari tayinlanadi. Ishchi va o'quvchilar fuqaro muhofazasining ushbu qo'shilma tarkibiga biriktiriladilar va shtablar tomonidan o'tkaziladigan ob'ekt o'quv mashg'ulotlariga jalg qilinadilar.

Tashkilot, korxona va muassasalarda ixtisosligi, ishchi va xizmatchilar, o'qituvchi va o'quvchilarning soni hamda moddiy-o'quv bazasining mavjudligiga qarab ushbular tuzilishi mumkin:

- aloqa zvenosi (agar zarur bo'lsa);
- radiatsion va kemyoviy kuzatuv posti;
- qutqaruv guruhi;
- jamoat tartibini saqlash guruhi;
- yong'inga qarshi komanda;
- fuqaro muhofazasining yashirinish joylariga, panagoxlarga (agar ular muassasalarda mavjud bo'lsa) xizmat ko'rsatish zvenolari;
- sanitarni posti.

Fuqaro muhofazasining har-bir zvenosi favqulotda-ekstremal sharoitlarda aholi va xududlarni favqulotda vaziyatlarning shikastlovchi omillaridan maksimal darajada ximoya qilish va ularni oqibatlarini bartaraf qilish doirasida o'ziga biriktirilgan vazifani aniq va o'z vaqtida bajarishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gidrotexnik inshootlaridagi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda qidiruv- qutqaruv ishlarini amalga oshirish chora tadbirdi "FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES" ITALIA (144-149 b) WWW.INTERONCONF.ORG Nuraliyev.A.O Axmadjonov.M.A
2. Zaharli moddalardan aholini muhofazalashni iqtisodiy samaradorligini oshirish chora tadbirdi MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFECIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH CONFERENCE GERMANY (282-286 b) WWW.INTERONCONF.ORG Nuraliyev.A.O Berdiyev.D.F
3. Sanoat korxonalarida uzliksiz mehnat tizimini tashkillashtirish, boshqaruv tizimini tashkil etish MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFECIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH CONFERENCE GERMANY (275-281 b) WWW.INTERONCONF.ORG Nuraliyev.A.O Qodirov.D.B
4. Mamlakatimizda seysmik faol hududlarida bino va inshootlar barqarorligini taminlash istiqbollari Mejdunarodnyiy sovremenneyiy nauchno-prakticheskiy jurnal № 11 (100),chast 1, (234-242b) Nuraliyev.A.O Mamasidiqov.A.M
5. Fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda ko'rildigan zarur choralar haqidagi bilimlarini oshirish bo'yicha ta'lim resurslarini yaratish uchun bilim va

- ko'nikmalarini rivojlantirish <http://pedagoglar.org/index.php/02/issue/view/43>
Nuraliyev.A Turg'unboyev.D
6. Favqulodda vaziyatlarda fuqarolarga psixologik yordam ko'rsatishning asosiy tamoyillari
<http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/5177> Nuraliyev.A Tursunboyev.A
 7. Turagalov , T. D. ., & Nasriddinov , N. J. M. o'g'li. (2022). ZAMONAVIY YONG'IN O'CHIRISH AVTOMATIK TIZIMLARNING AHAMIYATI VA MUAMMOLARI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(6), 705–709. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/2306>
 8. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li. (2022). SANOAT KORXONA3.LARIDAN CHIQAYOTGAN ZARARLI MODDALARNI SABABLARI VA YECHIMLARI. Zamonaviy fan va ilmiy tadqiqotlar bo'yicha xalqaro konferentsiya materiallari , 1 (3), 144 149. <https://econferenceseries.com/index.php/icmsss/article/view/597> dan olindi
 9. Nasriddinov Jasurbek Muxammadjon o'g'li, Qodirov Diyorbek Bo'ltak o'g'li, MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH "Hodimlarni shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi" jild. 3-son 29 (2023-yil) <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/9270>
 10. Shoxrux Mamadboev, Talabalarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari. Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi.2023/12/1. 709-713
 - 11.Mamadboev, S. . (2023). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE ORGANIZATION OF PROPER MOVEMENT IN EMERGENCY SITUATIONS. Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences, 2(19), 90–93. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/tafps/article/view/9573>
 - 12.Mamadboev Sh.B. SOCIAL-PEDAGOGICAL PROBLEMS OF PREPARING STUDENTS TO ACT CORRECTLY IN EMERGENCY SITUATIONS. Экономика и социум. 2022/12/12. 478-481